



2026-yil “8” fevral

01/0016

TASDIQLAYMAN
“Navoiyazot” AJ Ijro organi huzuridagi
Xavflarni boshqarish qo‘mitasi raisi
_____ F.X. Samadov

« » _____ 2026 yil

**“NAVOIYAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATI IJRO ORGANI TARKIBIDAGI
XAVFLARNI BOSHQARISH QO‘MITASINING
2-SON YIG‘ILISH BAYONNOMASI**

Sanasi: 2026 yil ____ fevral

Ishtirokchilar:

Qo‘mita raisi:

Samadov Farrux Xamzaevich

Boshqaruv raisi v.b.

Qo‘mita a‘zolari:

Vafoev Muxammadali Mirzoevich

Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish masalalari, sanoat va axborot texnologiyalari sohasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish bo'yicha birinchi o'rinbosari

Jalilov Dilshodjon Dilmurodovich

Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya va xususiy lashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosari

Jurakulov Baxtiyor Shermamatovich

Boshqaruv raisining marketing, sotish va sotib olish bo'yicha o'rinbosari

Urokov Orifjon Akbarovich

Ichki audit xizmati rahbari

Chutchiev Xamidulla Abdullaevich

Bosh buxgalter

Ochilov Azimjon To‘xtamishovich

Komplaens-nazorat boshqarmasi boshlig‘i v.v.b

Isoyev Ruslan Ilyosovich

Yuridik boshqarma boshlig‘i

Esanov Oybek Ulug‘bekovich

Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig‘i

KUN TARTIBI:

1. “Navoiyazot” AJning 2026 yil uchun xavf-appetiti to‘g‘risidagi bayonotini ko‘rib chiqish va kelishish to‘g‘risida.
2. Xavflarning asosiy xavflarga nisbatan tolerantlik darajasi va asosiy xavf ko‘rsatkichlarini (KRI) ko‘rib chiqish va kelishish to‘g‘risida.
3. Asosiy xavflar reestri va xavflar xaritasi ko‘rib chiqish va kelishish to‘g‘risida.
4. «Navoiyazot» AJning xavflar turlari va javobgarlik turlari bo‘yicha kafolatlar xaritasini tasdiqlash

ESHITILDI:

1-masala yuzasidan “Navoiyazot” AJ boshqaruv raisi v.b. **F.X. Samadov** so‘zga chiqib, Jamiyatda xavflarni boshqarish tizimini COSO ERM va ISO 31000 standartlari talablariga muvofiq joriy etish doirasida, shuningdek, “KPMG Audit” MChJ tavsiyalari asosida **Jamiyatning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlari bo‘yicha xavf-appetiti qiymatlari ishlab chiqilganligini** ma’lum qildi.

Ta’kidlandiki, xavf-appetiti:

- Jamiyat tomonidan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan **xavflarning maqbul darajasini** belgilash,
- strategik va operatsion qarorlar qabul qilishda **xavfga yondashuvni ta’minlash**,
- resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish hamda
- Jamiyatning barqaror faoliyati va rivojlanish maqsadlari o‘rtasida **muvozanatni saqlash** uchun xizmat qiladi.

Kun tartibining **ikkinchi masalasi** bo‘yicha **xavflarning tolerantlik darajasi va asosiy xavf ko‘rsatkichlari (KRI)** to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Qayd etildiki:

- xavf-tolerantlik darajasi **xavf-appetiti doirasida** belgilanadi;
- tolerantlik chegaralaridan chetga chiqish holatlari **asosiy xavf ko‘rsatkichlari (KRI)** orqali monitoring qilinadi;
- KRilar Jamiyat rahbariyatini va Kuzatuv kengashini **o‘z vaqtida ogohlantirish** hamda boshqaruv choralari ko‘rish imkonini beradi.

Kun tartibining **uchinchi masalasi** yuzasidan Jamiyatda COSO ERM talablariga muvofiq ishlab chiqilgan **Xavflar reyestri (Top-21)** va **Xavflar xaritasi** taqdim etildi.

Mazkur hujjatlar:

- Jamiyatning asosiy strategik, operatsion, moliyaviy va boshqa muhim faoliyat yo‘nalishlaridagi xavflarni aks ettirishi,
- xavflarning ehtimolligi va ta’siri asosida **ustuvorligini belgilash**,
- rahbariyat tomonidan qarorlar qabul qilishda **yagona axborot bazasi** sifatida foydalanish imkonini berishi ta’kidlandi.

Kun tartibining **to‘rtinchi masalasi** doirasida “Navoiyazot” AJda **xavflar turlari va javobgarlik turlari bo‘yicha kafolatlar xaritasi** taqdim etildi.

Mazkur xaritalar:

- xavflarni boshqarishda **vakolat va javobgarliklarni aniq taqsimlash**
- birinchi, ikkinchi va uchinchi himoya bo‘g‘inlari doirasida **boshqaruv va nazorat mexanizmlarini aniqlash**,
- ichki nazorat va monitoring jarayonlarining shaffofligini ta’minlashga xizmat qilishi tushuntirildi.

QAROR QILINDI:

1. “Navoiyazot” AJning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlari bo‘yicha xavf-appetiti qiymatlari kelishilsin, Jamiyatning strategik hamda operatsion qarorlarini qabul qilish jarayonlarida qo‘llanilsin, shuningdek, tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritilsin.

2. Xavflarning tolerantlik darajasi va asosiy xavf ko‘rsatkichlari (KRI) kelishilsin, tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritilsin hamda ularning monitoringi Jamiyatning xavflarni boshqarish tizimi doirasida amalga oshirilsin.

3. Jamiyatning Xavflar reyestri va Xavflar xaritasi kelishilsin, tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritilsin hamda rahbariyat va Kuzatuv kengashi uchun hisobotlarni shakllantirishda asosiy boshqaruv hujjati sifatida qo‘llanilsin.

4. “Navoiyazot” AJda xavflar turlari va javobgarlik turlari bo‘yicha kafolatlar xaritasi tasdiqlansin va barcha tarkibiy bo‘linmalar faoliyatida qo‘llash uchun joriy etilsin.

5. Mazkur qarorlar ijrosi ustidan nazorat Xavflarni boshqarish bo'limi zimmasiga yuklatilsin.

Tasdiq

Boshqaruv raisi v.b.



F. X. Samadov

Rozilik

**Boshqaruv raisining ishlab
chiqarish bo'yicha birinchi
o'rinbosari v.v.b.**



M. M. Vafoyev

**Boshqaruv raisining moliya,
transformatsiya va
xususiylashtirish bo'yicha
birinchi o'rinbosari**



D. D. Jalilov

**Boshqaruv raisining
marketing, sotish va sotib
olish bo'yicha o'rinbosari**



B. Sh. Jurakulov

Bosh buxgalter



H. A. Cho'ttiyev

Boshqarma boshlig'i



O. U. Esanov

Boshqarma boshlig'i



R. I. Isoyev

Boshqarma boshlig'i



A. T. Ochilov

Ichki audit xizmati rahbari



O. A. O'roqov

Mas'ul

Bo'lim boshlig'i



Sh.T. Sayidova